

**Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy
kutubxonasi**

**TOSHKENT SHAHRIDAGI
OLIY O‘QUV YURTLARI
KUTUBXONALARI**

Toshkent – 2005

0

**Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy
kutubxonasi**

**TOSHKENT SHAHRIDAGI
OLIY O‘QUV YURTLARI
KUTUBXONALARI**

MA’LUMOTNOMA

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti

Toshkent – 2005

78.34 (5 ʻ)

T 71

Ilmiy – metodik boʻlim tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi O.Qilichboyev

Muharrir H. Mamatramova

Mazkur maʼlumotnomada Toshkent shahridagi oliy oʻquv yurtlari kutubxonalari (kutubxonalar roʻyxati mundarijada berilgan) toʻgʻrisida maʼlumotlar berilgan. Maʼlumotnomada kutubxonalarning toʻliq nomi, manzili, elektron pochta manzili, veb-sayti, kutubxona rahbarining ismi sharifi, telefon raqami, shuningdek, kutubxonalarning qisqacha tarixi, bugungi kundagi faoliyati va ilgʻor ish tajribalari berilgan.

Maʼlumotnomadan kutubxona xodimlari va keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

№ 423 - 2005

**© Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston
Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y.**

Tuzuvchidan

*Kutubxonalar xalqimizning
ma'naviy kamoloti uchun xizmat
qilayotgan milliy ma'naviyatimizning bir
qismidir.*

Islom KARIMOV

Aziz hamkasblar! Qo'lingizdagi ma'lumotnoma "O'zbekistonning yirik kutubxonalari" nomli metodik ma'lumotnomadan keyingi yaratilgan ikkinchi nashridir.

Ushbu ma'lumotnomaning dastlabki varianti 2001 yilda Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti kutubxonasining rahbari Z.Abbasova tomonidan "Adresno-telefoniy spravochnik bibliotek visshix spetsialnix uchebnix zavedeniy" nomda qo'lyozma turida tayyorlangan. Biz yuqoridagi spravochnikni yanada to'liqroq, ya'ni institutlar va ularning kutubxonalari to'g'risida ma'lumotlarni lotin alifbosida berishga harakat qildik. Mazkur qo'llanma oliy o'quv yurtlari kutubxonalari tomonidan berilgan materiallar asosida tayyorlandi. Ma'lumotnomani tayyorlashda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari" nomli ma'lumotnomadan ham foydalanildi.

Ma'lumotnomaga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar, Mudofaa vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati tizimidagi oliy o'quv yurtlari kutubxonalari haqidagi ma'lumotlar kiritilmadi. Viloyatlardagi oliy o'quv yurtlari kutubxonalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish birmuncha murakkabligini inobatga olib, faqat Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlari kutubxonalari to'g'risidagi ma'lumotlarni berish bilan cheklandik. Toshkent shahridagi universitetlar kutubxonalari haqidagi ma'lumotlar esa "O'zbekistonning yirik kutubxonalari" nomli metodik ma'lumotnomaga kiritilgan.

Ma'lumotnomaga kiritilgan materiallar alifbo tartibida joylashtirildi.

Ma'lumotnomani tayyorlashda yaqindan yordam bergan oliy o'quv yurtlari rahbarlariga, kutubxona rahbarlariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ma'lumotnoma haqidagi fikr va mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz.

700047, Toshkent shahri, Xorazm ko'chasi, 51 uy.
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining
Ilmiy-metodik bo'limi. Tel.139-44-40. **E-mail:** navoi@uzsci.net

1. **Kutubxonaning nomi:** Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1997
3. **Manzili:** 700031, Azimov ko‘chasi, 35-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** --
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Sagidullina Safiya Ahmetovna
8. **Telefon raqami:** 133-95 -86

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tasviriy san’atning barcha turlari hamda nazariyasidan akademik tahsil beruvchi oliy o‘quv yurtidir.

Institut kutubxonasi Mannon Uyg‘ur nomidagi Teatr va rassomchilik instituti kutubxonasi negizida 1997 yilda tashkil etilgan. Kutubxona fondi dastlab 18 ming nusxani tashkil etgan. Ular asosan tasviriy san’at turlari va nazariyasiga taalluqli kitob va albomlardan iborat bo‘lgan.

Hozirgi kunda kutubxonaga ijtimoiy-siyosiy, iqtisod, san’at va badiiy adabiyotlarning olinish ko‘rsatkichi ko‘paygan.

Kutubxona asosan Kasb ta’limi (san’at va madaniyat), San’atshunoslik, Rangtasvir, Dizayn, Grafika, Haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha), Amaliy san’at, Menejment (san’at turlari bo‘yicha) fakulteti talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Har yili Tasviriy san’at, Amaliy bezak san’ati, manzaralar, kiyimlar, arxitektura dizaynlariga oid gazeta va jurnallarni kutubxonaga olish bo‘yicha bir qancha firma va tashkilotlar bilan shartnomalar imzolangan. Bunday gazeta va jurnallarning aksariyat qismi Rossiyadan keltiriladi.

Kutubxonada 50 ta kitobxonga mo‘ljallangan qiroatxona va komp’yuter sinfi mavjud.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 25 ming 856 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent davlat aviatsiya instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1995
3. **Manzili:** 700128, Usmon Yusupov ko‘chasi, 107- uy
4. **Faks raqami:** 41-55-89
5. **E-mail:** AKΦBIB@mail.ru
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Rasulova Noila Mahamatovna
8. **Telefon raqami:** 144-92-73

Toshkent davlat aviatsiya instituti 1995 yil Abu Rayxon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti samolyotsozlik fakulteti, Kiev xalqaro fuqaro aviatsiyasi universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent aviatsiya texnikumi (hozirda kollej), hamda “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasining o‘quv mashg‘ulot markazlari asosida tashkil etilgan.

Kutubxona ham institut bilan bir vaqtda 1995 yilda tashkil etilgan. Dastlab kutubxona Toshkent davlat texnika universiteti samolyotsozlik fakultetida o‘z faoliyatini boshlagan.

Kutubxonada Kutubxona fondini to‘ldirish, Kitob saqlash va kataloglar, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Bibliografiya va yordamchi ko‘rsatkichlar bo‘limlari mavjud.

Kutubxona asosan Umumtexnika, Aviakoinot, Fuqaro aviatsiyasi fakultetlari talabalariga xizmat ko‘rsatadi. Shu fakultetlar qoshida kutubxona bo‘limlari ham mavjud.

Umumtexnika fakulteti kutubxonasi asosan 1 va 2 kurs talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Fuqaro aviatsiyasi fakultetida joylashgan kutubxona sirtqi bo‘lim talabalariga hamda kundizgi bakalavr va magistrlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fondida 54 ming 400 nusxadan ortiq adabiyotlar mavjud. Bu adabiyotlar asosan Kiev fuqaro aviatsiyasi (KIIGA) institutining Toshkentdagi filialidan tashkil

qilingan. Bu fakultet kutubxonasi fondidagi adabiyotlar mutaxassislik fanlaridan darsliklar va spravochnik, o'quv qo'llanma va metodik qo'llanmalardan iborat bo'lib nodir adabiyotlar hisoblanadi.

Shu fakultet qoshida joylashgan kutubxona menejment, marketing, kasbiy pedagogik ta'lim, uchish apparatlarining texnik ekspluatatsiyasi, havodagi harakatni boshqarish, elektrotexnika va radioelektronika sohalari bo'yicha ta'lim olayotgan talaba yoshlarning bilim saviyasini yanada oshirishga yordam beradi.

Kutubxonada 140 ta kitobxonga mo'ljallangan qiroatxona mavjud. Qiroatxonada Rossiyadan keltirilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha adabiyotlar, institut professor-o'qituvchilarining darsliklari, o'quv metodik qo'llanmalari hamda 196 nomdan ortiq ma'ruza matnlarining elektron variantlari mavjud. Shu bilan birgalikda qiroatxonada internet tarmog'iga ulangan komp'yuterlar, skaner, audio va video apparaturalaridan, CD diskalaridan talabalarning foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Qiroatxona fondida maxsus fanlardan jurnallar (Trudi SAGI) saqlanadi.

Kutubxonaning talabalar uyidagi bo'limi esa talabalarning o'qishdan bo'sh vaqtlariga moslashtirilgan holda kech soat 22 ga qadar xizmat ko'rsatadi.

Institut qoshida Avia litsey ham tashkil etilgan. Litseyning alohida kutubxonasi mavjud. Kutubxonada 5400 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

Kutubxona qiroatxonasida "Zukkolar" viktorinasini, adabiyotlar ko'rgazmasi, uchrashuvlar va boshqa tadbirlar tez-tez o'tkazilib turiladi.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 109 ming 181 nusxa adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent avtomobil-yo‘llar instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1972
3. **Manzili:** 700060, Movarounnahr ko‘chasi, 60-uy
4. **Faks raqami:**
5. **E-mail:**
6. **http:** -
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Qosimxo‘jayeva Muallo Amirovna
8. **Telefon raqami:** 132-15-47

Toshkent avtomobil-yo‘llar instituti Markaziy Osiyo mintaqasida mazkur soha bo‘yicha yagona oliy o‘quv dargohi hisoblanadi. Institut Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1972 yilgi 27-sonli buyrug‘i bilan Toshkent politexnika instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti)ning Avtomobil-yo‘llar fakulteti negizida tashkil qilingan.

Institut kutubxonasi ham o‘z faoliyatini shu yildan boshlagan. Kutubxona asosan “Avtomobilsozlik va avtomobil xo‘jaligi”, “Avtomobil yo‘llar iqtisodiyoti va boshqaruv”, “Yo‘l qurilishi va mexanizatsiyalash” hamda Sirtqi fakultetlar talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxonada Kitob saqlash, Adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Ma’lumot-bibliografiya, Komp’yuter sinfi va Sirtqi bo‘lim talabalariga xizmat ko‘rsatish bo‘limlari mavjud.

Kutubxonaning komp’yuter sinfida Internet tarmog‘i, ma’ruzalar matnining elektron variantlari, multimedialar, animatsiali ma’ruzalar matni, texnikaviy ma’lumotnomalar mavjud bo‘lib, talabalarining ilm olishlariga qulay imkoniyatlar yaratilgan.

Hozirgi kunda kutubxonada 393 ming 600 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent arxitektura – qurilish instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1992
3. **Manzili:** 700011, Navoiy ko‘chasi, 13-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** rbilisn@tkt.uz
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Yunusova Gulnoza Hamidullayevna
8. **Telefon raqami:** 144-63-30

Toshkent arxitektura – qurilish instituti 1991 yilda Toshkent davlat texnika universitetining arxitektura va qurilish fakultetlari negizida tashkil qilingan.

Institut arxitektura va qurilish ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha respublikada yetakchi oliy o‘quv yurtlaridan biridir.

Toshkent arxitektura – qurilish instituti kutubxonasining tashkil etilishi institut faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Kutubxona asosan arxitektura, sanoat va fuqaro qurilishi, injiner – qurilish va iqtisod fakultetlari hamda litsey, malaka oshirish fakulteti, xorijiy aloqalar bo‘limi talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxonada Kitob saqlash, Adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limlari va 2 ta qiroatxona mavjud. Bundan tashqari talabalar uyida ham kutubxona tashkil etilgan.

Kutubxona fondining tarkibi tabiiy va ijtimoiy fan sohalariga oid, shuningdek qurilish va me‘morchilikka oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalaridan iborat. Prezident asarlari 3 ming nusxadan ortiq.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 230 ming nusxaga yaqin turli adabiyotlar saqlanmoqda.

Institut professor-o'qituvchilari, aspirant, magistr va bakalavrlarning kutubxonadagi Internet tarmog'idan foydalanishlari uchun qulayliklar yaratilgan.

Hozirda kutubxonadagi mavjud adabiyotlarning elektron katalogini yaratish uchun "IRBIS" dasturi bo'yicha ish olib borilmoqda.

Kutubxona qoshida chet el adabiyotlari kutubxonasi ham mavjud. Bu kutubxona Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 1994 yilda tashkil etilgan. Kutubxona zamonaviy uskunalar bilan ham ta'minlangan. Kutubxona fondi 5 ming nusxadan ortiq bo'lib, asosan tabiiy va ijtimoiy fan sohalariga oid ingliz, nemis, fransuz va boshqa xorijiy tillardagi adabiyotlarni tashkil etadi. Bundan tashqari, kutubxona fondi har yili Rossiyaning davriy nashrlari bilan ham to'ldirib boriladi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining Asosiy kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1974
3. **Manzili:** 700164, Yalang'och dahasi, 127- A uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** --
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Berdiyeva Zuhra Shukurovna
8. **Telefon raqami:** 162-38-44

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti 1974 yildan buyon malakali madaniyat xodimlarini tayyorlab kelmoqda.

Institutning Asosiy kutubxonasi 1974 yilda institut bilan bir vaqtda faoliyat ko'rsata boshlagan. Institut madaniyat muassasalari, jumladan kutubxonalar uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. O'sha paytda institutga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi pedagogika universiteti)dan kutubxonachilik fakulteti, Teatr va rassomchilik instituti (hozirgi san'at instituti) va Konservatoriyadan bir nechta bo'lim va fakultetlar, shu bilan birga o'sha oliy o'quv yurtlari kutubxonalaridan madaniyat va san'at sohalariga doir adabiyotlar ham o'tkazilgan.

Hozirgi kunda kutubxonada Kutubxona fondini to'ldirish va adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, Bibliografiya, Musiqa adabiyotlari bo'limlari va kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish shu'basi mavjud.

Kutubxona asosan Kasbiy pedagogik tayyorgarlik, Kutubxona – axborot faoliyatini boshqaruv, Ijtimoiy – madaniy faoliyat, Xalq ijodiyoti, Sirtqi madaniyatshunoslik fakultetlari talabalariga hamda malaka oshirish fakulteti tinglovchilariga xizmat ko'rsatadi.

Kutubxona fondidagi adabiyotlarning asosiy qismini institut ixtisosligidagi o'quv adabiyotlar tashkil etadi.

2003 yildan boshlab kutubxonada adabiyotlarning elektron katalogini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Hozirgi kunga qadar 68 ming nusxa (9 ming nom)dagi adabiyotlarning tasviri bu elektron katalogga kiritilgan. Kitobxonlar haqidagi ma'lumotlar ham komp'yuter xotirasiga kiritilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda mutaxassis U.Sobirov yaqindan yordam berib kelmoqda.

Kutubxonada yozuvchi va shoirlar, san'atkorlar, ijodkorlar, institut professor-o'qituvchilari tomonidan sovg'a qilingan adabiyotlardan iborat kutubxonaning "oltin fondi" tashkil etilgan.

Kutubxonada Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi o'quv yurtlari kutubxonalaridan tashqari boshqa vazirliklar tizimidagi kutubxonalar uchun ham metodik ishlar olib borilmoqda. Jumladan, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kutubxona ish hujjatlarini yuritish, ommaviy tadbirlar o'tkazish, bibliografiya ishini to'g'ri tashkil etish, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish borasida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, "Turon" Toshkent viloyat universal ilmiy kutubxonasi, Moliya kolleji bilan amaliy hamkorlikda ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Hozirda adabiyotshunos olim X.Abdusamatovning 80 yillik yubileyiga, institutning birinchi rektori A.P.Qayumovning 80 yillik yubileyiga bag'ishlangan bibliografik qo'llanmalarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Oybekning 100 yilligiga bag'ishlangan bibliografik ko'rsatkich esa nashrdan chiqarildi. Kutubxonaning kelesidagi maqsadi kutubxonachi kadrlar uchun o'quv markaziga aylantirishdan iborat.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 70 ming nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanmoqda.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent davlat Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1947
3. **Manzili:** 700031, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 31 uy
4. **Faks raqami:** 56-24-36
5. **E-mail:** tdmrxom@uzsci.net
6. **http:** -
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Qudratova Nazima Akbarovna
8. **Telefon raqami:** 56-33-27

Toshkent davlat Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi, xoreografiya bilim yurti negizida tashkil etilib, 1997 yildan boshlab xoreografiya san’ati sohasida oliy darajali kadrlar tayyorlay boshlagan.

Kutubxona 1947 yilda tashkil etilgan. Dastlab kutubxona fondi 30-40 nusxadan iborat bo‘lgan.

Hozirda kutubxonada Siyosiy, Badiiy, Maxsus adabiyotlar, Notalar va o‘quv darsliklaridan iborat 5 ta bo‘lim mavjud.

Kutubxonada S.Xudenkoning 1912, 1913 yillarda Sankt-Peterburgda nashr etilgan 3 qismdan iborat “Istoriya tansev” kitobi va 1898 yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan “Russkiy balet. Chetire baleriin imperatorskogo Mariinekogo teatra” nomli nodir adabiyotlar saqlanmoqda.

Qiroatxonada Prezident asarlari ko‘rgazmasi, Milliy istiqlol g‘oyasi, terrorizm, giyohvandlik va boshqa dolzarb mavzularga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar tashkil etilgan.

Kutubxonadan asosan o‘qituvchilar, oliy maktabda ta’lim olayotgan 5-11 sinf o‘quvchilari foydalanadilar.

5-11 sinf o‘quvchilari o‘quv darsliklari bilan bepul ta’minlangan.

Hozirgi kunda kutubxona fondi 35 ming nusxadan ortiq adabiyotlarni tashkil etadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san‘at instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1945
3. **Manzili:** 700000, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** tdsi@uzsci.net
6. **http:** www.artinst.uz
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Abbasova Zarema Sharifovna
8. **Telefon raqami:** --

Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san‘at instituti Markaziy Osiyo hududida teatr san‘ati sohasida birinchi oliy ta‘lim muassasasi sanaladi. U 1945 yil Toshkent davlat teatr san‘ati instituti sifatida tashkil etilgan. 1954 yil institut qoshida rassomlik fakulteti ham ochilgan.

Institut kutubxonasi ham 1945 yilda tashkil etilgan. Kutubxona fondining asosiy qismini o‘zbek dramaturgiyasi, MDH davlatlari dramaturgiyasi, xorijiy mamlakatlar dramaturgiyasi, teatr tarixi, teatr tanqidchiligi, rejissura, aktyorlik mahorati, qo‘g‘irchoq teatri, kino va televideniye kabi yo‘nalishlar bo‘yicha hamda ilmiy va badiiy adabiyotlar tashkil etadi.

Kutubxonaning Nodir adabiyotlar bo‘limida teatr va san‘at sohasida taniqli K.Simonov, N.Abalkin, V. Saxnovskiy–Pankееv, K.Raykin, R.Gamzatov, O.Tabakov, G.Tovstonogovlarning dastxatlari yozilgan adabiyotlar saqlanadi.

Kutubxonada Kitob saqlash, Kutubxona fondini to‘ldirish va adabiyotlarga islov berish, Abonement, Biblioografiya, Komp’yuter bo‘limlari va Vaqtli matbuot nashrlari, Nodir adabiyotlar, Chet el adabiyotlari fondlari mavjud.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 122 ming 352 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent davlat sharqshunoslik instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1991
3. **Manzili:** 700047, Shahrisabz ko‘chasi, 25-uy
4. **Faks raqami:** 120-65-65
5. **E-mail:** marg‘uba58@rambler.ru
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Yo‘ldosheva Marg‘uba Meliyevna
8. **Telefon raqami:** 133-79-66

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti xorijiy sharq mamlakatlari tillari, adabiyoti, tarixi, madaniyati, xalqaro munosabatlar va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarni o‘rgatuvchi Markaziy Osiyo hududidagi eng yirik va tanilgan oliy o‘quv yurti hisoblanadi.

Kutubxona MDH, Yevropa, Amerika hamda Osiyo davlatlarida chop etilgan adabiyotlarni olishda yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan.

Kutubxona asosan, Sharq filologiyasi, iqtisod, tarix, quriyashunoslik fakulteti talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxonada Kutubxona fondini to‘ldirish va adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Metodika, Bibliografiya, Chet el adabiyotlari, Axborot texnologiyalari bo‘limlari mavjud.

Institutning aksariyat kafedralari, jumladan, Yapon filologiyasi, Quriyashunoslik, Islomshunoslik, Eron-Afg‘on, Arab filologiyalari, Janubiy Osiyo tillari kabi kafedralar o‘z kutubxonalariga ega bo‘lib, doimiy ravishda chet el elchixonalari tomonidan yangi adabiyotlar va o‘quv qurollari bilan ta‘minlanib kelinadi. Kafedralar kutubxonalarida 70000 nusxadagi xorijiy tillardagi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar to‘plangan.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 200 ming nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent davlat yuridik instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1920
3. **Manzili:** 700047, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy
4. **Faks raqami:**
5. **E-mail:** slibjur@uzsci.net
6. **http:** -
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Maksumova Munira Abdurazzaqovna
8. **Telefon raqami:** 133-82-27

Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) yuridika fakulteti negizida 1991 yil tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazilgan.

Institut xalq xo'jaligining barcha sohalari uchun yuqori malakali yurist-huquqshunoslarni tayyorlash bo'yicha bosh o'quv muassasasi bo'lib hisoblanadi.

Institut kutubxonasi 1920 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning yuridik fakulteti kutubxonasi negizida tashkil etilgan.

Kutubxona zamonaviy aloqa vositalari bilan ta'minlangan va katta imkoniyatlarga ega.

Kutubxonada Kutubxona fondini to'ldirish, Tizimlash va kataloglashtirish, Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, Axborot-bibliografiya, Xorijiy adabiyotlar va xalqaro kitob ayirboshlash, Elektron kutubxona, Sirtqi va Talabalar uyida xizmat ko'rsatish bo'limlari mavjud. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'limlarida kitobxonlarning tezkor axborot olishlari uchun zamonaviy komp'yuter texnologiyalari bilan ta'minlangan.

Kutubxona fondida XIX asr boshlari va XX asrlarga taalluqli 2 mingdan ortiq nodir nashrlar ham saqlanadi. Bu nodir nashrlar kutubxonaning elektron katalogiga kiritilgan.

2004 yildan boshlab kutubxonada har chorakda “O‘zbekiston Respublikasi va chet el nashrlari byulleteni”ni nashr etish yo‘lga qo‘yilgan.

Kutubxonada va uning tarmoqlarida nafaqat institut olimlari hamda professor-o‘qituvchilari uchun, balki yosh bo‘lajak yuristlarning chuqur bilim olishlari uchun ham barcha qulay sharoitlar yaratilgan.

Toshkent davlat yuridik instituti kutubxonasi nafaqat ilmiy markaz, balki huquqiy axborot markazi hamdir. Unda xorij va vatanimizning yuridik fanlari va uning tarixi bo‘yicha deyarli to‘liq axborotlar jamlangan.

Kutubxonada “IRBIS” dasturi bo‘yicha adabiyotlarning elektron katalogini tuzish ishlari olib borilmoqda. 2004 yil aprel oyigacha kutubxonaning elektron katalogiga 7 mingga yaqin bibliografik yozuv kiritilgan.

Talabalar, aspirantlar, yosh olimlar uchun kutubxonada “Elektron kutubxona” tashkil etilgan.

2003 – 2004 o‘quv yilining boshida adabiyotlarning elektron ko‘rinishidagi variantini yaratish ishiga tayyorgarlik boshlangan va hozirgacha 30 ta mutaxassislik fanlarning elektron ko‘rinishidagi varianti tayyorlangan.

Hozirgi kunda kutubxonalar nafaqat yangi adabiyotlarning elektron katalogidan, balki “Norma”, “Kodeks”, O‘zbekiston Respublikasining qonun va qarorlaridan iborat ma’lumotlar bazasidan ham keng foydalanadilar.

Bugungi kunda kutubxona ko‘pchilik oliy o‘quv yurtlari va tashkilotlar uchun yuridik axborot resurs markazi hisoblanadi.

Kutubxona fondi har yili o‘rtacha 5 mingdan 6 ming nusxagacha bo‘lgan yangi adabiyotlar bilan to‘ldirib boriladi.

Hozirgi kunda kutubxona fondidagi kitoblar, vaqtli matbuot nashrlari, dissertatsiyalar, avtoreferatlar va metodik qo‘llanmalar jami 205 ming nusxani tashkil etadi. Elektron ko‘rinishdagi hujjatlar esa 96 nomdagi 233 diskdan iborat.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti. Resurs markazi – kutubxona
2. **Asos solingan yili:** 1934
3. **Manzili:** 700000, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39-uy
4. **Faks raqami:** 133-09-19
5. **E-mail:** sadovnikova@mail.ru
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Sadovnikova Vera Mixaylovna
8. **Telefon raqami:** 137-19-45

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalastirish injenerlari instituti Markaziy Osiyodagi yirik oliy o‘quv yurtlaridan biridir. 1920 yil dastlab qishloq xo‘jaligi va texnika fanlari bo‘yicha fakultet mavjud bo‘lgan. 1929 yili melioratsiya muhandisligi fakulteti zaminida mexanika, qurilish va suv xo‘jaligi fakultetlari bo‘lgan O‘rta Osiyo paxtachilik – irrigatsiya politexnika instituti tashkil etilgan. 1931 yilda O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalastirish instituti tashkil etilgan. 1934 yilda O‘rta Osiyo irrigatsiya muhandislari va texniklari instituti O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalastirish instituti nomi ostida birlashtirilgan. Shu yil Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalastirish muhandislari institutiga aylantirilgan.

Institutning Resurs markazi – kutubxonasi ham 1934 yilda tashkil etilgan.

Resurs markazi – kutubxona 2004 yilgacha Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalastirish injenerlari institutining ilmiy kutubxonasi nomi bilan yuritilgan.

Resurs markazi – kutubxona tashkil etilgan yillardan boshlab hozirgi kungacha kutubxona fondini g‘oyaviy-siyosiy, umum-texnikaviy, gidromelioratsiya, suv xo‘jaligi iqtisodiyoti, yer tuzish va yerdan foydalanish kabi sohalar bo‘yicha adabiyotlar bilan to‘ldirib kelinmoqda.

1960 yilga kelib kutubxona fondi 400 ming nusxadan oshib ketganligi sababli kutubxona maydoni 819 kv. metrga kengaytirilgan va Andijon shahrida, talabalar shaharchasida qiroatxona, tayyorlov bo‘limi qoshida kutubxona bo‘limlari tashkil etilgan.

1981 yilning o‘rtalariga kelib Resurs markazi – kutubxona yangi binoga ko‘chirilgan.

Resurs markazi – kutubxonada Kitob saqlash, Kutubxona fondidi to‘ldirish, Adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Kataloglar tizimini tuzish va yuritish, Ilmiy–bibliografiya, Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘limlari va ilmiy adabiyotlar abonementi, mutaxassislik bo‘yicha o‘quv qiroatxonalar, professor–o‘qituvchilar qiroatxonasi va talabalar qiroatxonasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Resurs markazi – kutubxonada kitobxonlarga yakka tartibda va guruhli tabaqalashgan holda xizmat ko‘rsatish ham yo‘lga qo‘yilgan.

Resurs markazi – kutubxonada 1992 yildan buyon IRBIS dasturi bo‘yicha elektron katalog tuzish ishini davom ettirmoqda.

Resurs markazi – kutubxonada talabalar va professor–o‘qituvchilarning Internet tizimidan bepul foydalanishlari bilan birgalikda darslik, 142 nusxadan ortiq o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlarining elektron variantidan ham keng foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Resurs markazi – kutubxonada Internet markazi ham tashkil etilgan va kutubxonadagi mavjud komp’yuterlar lokal tarmoqqa ulangan.

Kitobxonlarga kutubxonalararo abonement bo‘yicha ham xizmat ko‘rsatiladi.

Bugungi kunda Resurs markazi – kutubxonada 613 ming 770 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent kimyo-texnologiya instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1940
3. **Manzili:** 700011, Navoiy ko'chasi, 32-uy
4. **Faks raqami:** 144-79-20
5. **E-mail:** tcti_kutubxona@mail.ru
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Azizova Guliston Azizovna
8. **Telefon raqami:** 144-79-21

Toshkent kimyo-texnologiya instituti 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 6 maydagi 203 – sonli Farmoniga muvofiq sobiq Toshkent politexnika institutining kimyo-texnologiya va muhandislik-texnologiya fakultetlari asosida tashkil etilgan.

Institut kutubxonasiga 1940 yilda asos solingan. O'sha davrda Toshkent politexnika instituti kimyo-texnologiya fakulteti kutubxonasi nomi bilan faoliyat ko'rsatgan. Kutubxona tashkil etilgan davrlarda asosan kimyo faniga oid adabiyotlar bo'lgan. Keyinchalik kutubxona fondi ijtimoiy–gumanitar, badiiy adabiyotlar va vaqtli matbuot nashrlari bilan ham to'ldirilib borilgan.

Kutubxonada Kutubxona fondini to'ldirish, Adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'limlari hamda bir nechta qiroatxonalar mavjud.

Kutubxona asosan Kimyo texnologiya va biotexnologiya, Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi va Fundamental fanlar fakultetlari talabalariga xizmat ko'rsatadi.

Kutubxonaning asosiy binosi Navoiy ko'chasida joylashgan. Shuningdek, H.Abdullayev va Lutfiy ko'chalarida, talabalar uyida ham kutubxona bo'limlari faoliyat ko'rsatadi. Asosiy binoda ijtimoiy–gumanitar, kasbiy ta'lim, axborot texnologiyalariga oid adabiyotlar, H.Abdullayev ko'chasidagi

kutubxona fondida esa organik va noorganik kimyo, texnologik jarayon va qurilmalar, texnologik jarayonlarni avtomatlash-tirish, neft va gaz, neftni qayta ishlash, selluloza, plastmassa va yog'ochsozlik sohalari bo'yicha adabiyotlar mavjud. Lutfiy ko'chasida joylashgan kutubxona bo'limi institut qoshidagi litsey o'quvchilariga xizmat ko'rsatadi.

Kutubxona fondida mutaxassislik fanlari bo'yicha adabiyotlardan tashqari badiiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jurnallar, dissertatsiya va aftoreferatlar ham saqlanadi.

Institutning ikkita elektron kutubxonasi zamonaviy komp'yuter texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lib, bakalavr va magistrlik mutaxassislik fanlari bo'yicha elektron darsliklar, ma'ruza matnlaridan foydalanishida barcha imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, kutubxonada talabalar uchun Internet xizmatidan bepul foydalanish keng yo'lga qo'yilgan.

Kutubxonaning Talabalar uyida ham bo'limi mavjud bo'lib, kitobxonlar uchun barcha qulay sharoitlar yaratilgan.

Institut xorijiy mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari bilan mutaxassislik fanlari bo'yicha o'zaro tajriba almashish ishlari bo'yicha ham shartnomalar imzolagan.

Talabalarning mutaxassislik fanlari bo'yicha adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liq qondirish maqsadida institut ma'muriyati tomonidan institut professor– o'qituvchilarining darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari va metodik qo'llanmalarini institut bosmaxonasida yetarli miqdorda chop etib, kutubxona fondiga topshirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Kutubxona fondi mutaxassislik fanlariga oid xorijiy adabiyotlar bilan ham to'ldirib boriladi.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 152 ming nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent moliya instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1991
3. **Manzili:** 700084, X. Asomov ko'chasi, 7-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** library@tfi.uz
6. **http:** www.tfi.uz
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Xo'jayeva Shohida Bahramovna
8. **Telefon raqami:** 135-77-95

Toshkent moliya institutiga 1931 yilda asos solingan.U 1962 yil xalq xo'jaligi institutiga aylantirilgan. 1991 yil xalq xo'jaligi institutining moliya – iqtisod va hisob iqtisod fakultetlari negizida Toshkent moliya instituti tashkil etilgan.

Institut kutubxonasi oliy o'quv yurtlari kutubxonalari orasida yetakchi kutubxonalardan biri hisoblanadi. Kutubxona institut bilan bir vaqtda tashkil etilgan. Dastlab kutubxona fondi 31 ming nusxadagi adabiyotlardan iborat bo'lgan.

Kutubxonada Kitob saqlash, Kutubxona fondini to'ldirish, Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, Ma'ruza matnlari, Chet el adabiyotlari, Metodik, Bibliografik bo'limlar mavjud.

Kutubxona asosan institutning Moliya iqtisod, Kredit iqtisod, Hisob iqtisod, Boshqaruv fakulteti talabalariga xizmat ko'rsatadi. Fakultetlar qoshida qiroatxonalar ham tashkil etilgan. Biznes maktab, institut qoshidagi 2 ta litsey, kollej o'quvchilari ham mazkur kutubxonadan foydalanadilar.

Kutubxona zamonaviy komp'yuter texnologiyalari bilan jihozlangan. Talabalar uchun alohida komp'yuter sinflari mavjud. 2002 yildan boshlab IRBIS dasturi bo'yicha elektron katalog tuzish ishlari olib borilmoqda.

Hozirda kutubxona fondida 490 ming 225 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent pediatriya tibbiyot instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1972
3. **Manzili:** 700140, Jahon Obidova ko'chasi, 223-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** --
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Muhamedova Karima Nazirqulovna
8. **Telefon raqami:** 60-47-29

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Markaziy Osiyoda yagona bolalar shifokorlari tayyorlashga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtidir. 1972 yildan Toshkent davlat birinchi tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan.

O'rta Osiyoda yagona tibbiyot pediatriya instituti 1998 yilga qadar O'rta Osiyo tibbiyot pediatriya instituti (SAMPI) deb yuritilgan.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti kutubxonasi 1972 yil may oyida institut bilan bir vaqtda tashkil etilgan. Kutubxona asosan MDH mamlakatlarining tibbiyot institutlari kutubxonalarini fondlaridan keltirilgan adabiyotlar hisobiga tashkil etilgan. Dastlab kutubxona fondi 5 ming 965 nusxani tashkil etgan. Kutubxona ish faoliyatini boshlagandan keyin tibbiyot institutlaridan sovg'a tariqasida olingan adabiyotlar hisobiga shu yilning sentyabr oyiga kelib kutubxona fondi 42 ming 291 nusxaga yetgan.

Kutubxonada Kutubxona fondini to'ldirish, Adabiyotlarga ishlov berish, Ma'lumot-bibliografiya, Badiiy adabiyotlar bo'limlari mavjud.

Institut talabalarining kutubxonadan foydalanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, kunduzgi qiroatxona, talabalar uyidagi qiroatxona, institut qoshidagi poliklinika

qiroatxonalarida talabalarning bo'sh vaqtlarini hisobga olib ertalab soat 8 dan kech soat 22 ga qadar tashkil etilgan.

Ma'lumot-bibliografiya bo'limida institut professor-o'qituvchilarining aforeferat va dissertatsiyalaridan tashqari tibbiyot sohasi bo'yicha "Institut professor-o'qituvchilarining ilmiy ishlari", "Pnevmoniya u detey v usloviyax jarkogo klimata", "Kartoteka adresov", "Kartoteka uchebnoy literaturi", "Kartoteka trudov", "Kartoteka obespechennosti uchebnikami" va boshqa kartotekalar tashkil qilingan.

Talabalarning xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini inobatga olib institut ma'muriyati tomonidan kutubxonada 1999 yili "Tibbiyotga oid xorijiy tillardagi adabiyotlar fondi" tashkil etilgan.

2000 yilda institut Janubiy Koreyaning Yensey universiteti bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolagan. Ularning bevosita yordami bilan kutubxonaga 4 ta komp'yuter, skaner, printer va 6 mingdan oshiq tibbiyotga oid yangi adabiyotlar sovg'a qilganlar. Shu bilan birgalikda xorijiy tillar ilmiy qiroatxonasi tashkil etilgan. Hozirda ilmiy qiroatxonaning fondi 9 ming nusxadan ortiq adabiyotlarni tashkil etadi. Qiroatxona komp'yuter texnologiyalari bilan jihozlangan.

Institut rektori A.Alimov tashabbusi bilan kutubxonada Multimediya bo'limi tashkil etilgan. Bu bo'limga tibbiyot sohasining 31-yo'nalishi bo'yicha 105 tadan ortiq lazer disklar sotib olingan.

Kutubxonaga Rossiyada chiqadigan tibbiyot sohasiga oid 26 nomdan ortiq gazeta va jurnallar olinadi.

Kutubxonada talabalarning ilm olishlari va bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish uchun uchrashuvlar, ko'rgazmalar, konferensiyalar va boshqa turli xil tadbirlar o'tkazish an'anaga aylangan.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 296 ming 577 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. Kutubxonaning nomi: Akmal Ikromov nomidagi Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari instituti ilmiy-texnik kutubxonasi

2. Asos solingan yili: 1931

3. Manzili: 700167, Odilxojayev ko‘chasi, 1-uy

4. Faks raqami: --

5. E-mail: biblioteka@tashiit.uz

6. http: www.tashiit.uz

7. Kutubxona rahbarining ismi-sharifi: Nishonov Mirislom Mirjalilovich

8. Telefon raqami: 199-05-16

Akmal Ikromov nomidagi Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari instituti Markaziy Osiyodagi eng keksa oliy o‘quv yurtlaridan bo‘lib, 1931 yilda tashkil etilgan.

Oliy ta‘lim muassasasi temir yo‘l va uning ishini boshqaruvchi kadrlar tayyorlovchi yagona institut hisoblanadi.

Akmal Ikromov nomidagi Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari instituti ilmiy-texnik kutubxonasi ham institut bilan bir vaqtda, ya‘ni 1931 yilda tashkil etilgan. Dastlab kutubxona fondi 4800 nusxadagi adabiyotlarni tashkil etgan. O‘sha davrlarda kutubxona tuzilmasi o‘quv, badiiy adabiyotlar, kutubxona fondini to‘ldirish bo‘limlaridan iborat bo‘lgan. Kutubxonaga dastlab S.M.Goldinova rahbarlik qilgan.

1943 – 1944 yillarda institutning asosiy kutubxonasini tashkil etish uchun zarur anjomlar, alohida bino ajratilgan. O‘sha davrlarda kutubxona fondi taxminan 140 ming nusxaga yaqin adabiyotlarni tashkil etgan. Kutubxona fondi asosan Rossiyadagi temir yo‘l transporti muhandislari institutidan keltirilgan adabiyotlar evaziga to‘ldirilgan.

1970 yillarga kelib kutubxonaning xizmat ko‘rsatish doirasi kengaygan ya‘ni, o‘quv, ilmiy, badiiy adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari bo‘limlari va 120 kitobxonga mo‘ljallangan

qiroatxonadan hamda fondi 400 ming nusxadagi adabiyotlarni tashkil etgan.

1980 yillarda kutubxona fondi 500 mingga yaqin adabiyotlarni tashkil etgan. Yangi ma'lumot-bibliografiya bo'limi ham tashkil etilgan.

Kutubxonada Kutubxona fondini to'ldirish va adabiyotlarga ishlov berish, Ma'lumot-bibliografiya, O'quv adabiyotlari, Ilmiy adabiyotlar, Badiiy adabiyotlar, Xorijiy adabiyotlar bo'limlari va professor-o'qituvchilar qiroatxonasi, talabalar qiroatxonasi mavjud.

2000 yilda kutubxonada xorijiy adabiyotlar bo'limi tashkil etilgan. Bo'limda mutaxassislik va boshqa turli sohalarga oid 600 nusxadan ortiq xorijiy tillardagi adabiyotlar saqlanadi.

2001 yilda kutubxonada 2 ta yangi o'qituvchilar va badiiy adabiyotlar qiroatxonasi ochilgan.

2002 yilda esa institutning o'qituvchilar, aspirantlar va magistrleri uchun internet tarmog'iga ulangan elektron qiroatxona tashkil etilgan. Bu yerda talabalar va magistrler institut o'qituvchilarining ma'ruza matnlarining ma'lumotlar bazasidan, darsliklaridan hamda o'quv qo'llanmalaridan foydalanadilar. Hozirgi kunda 20 dan ortiq elektron darsliklar mavjud. Shu bilan birgalikda EBSCO ma'lumotlar bazasining ingliz tilidagi 1991 – 2001 yillardagi ilmiy, ilmiy-texnikaviy jurnallaridan hamda 1997–2003 yillardagi haftalik “Komp'yuterra” jurnalining to'liq matnlaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Institutda o'tkaziladigan “Axborot kuni”, “Kafedralar kuni”, “Diplomantlar kuni” va boshqa tadbirlarda kutubxona xodimlari adabiyotlarning ochiq ko'rgazmalari bilan ishtirok etadilar.

Hozirda kutubxonaning elektron katalogini yaratish ishiga tayyorgarlik ko'rilmogda.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 556 ming 186 nusxadagi adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1932
3. **Manzili:** 700100, Shoh jahon ko‘chasi, 5- uy
4. **Faks raqami:** 53-36-17
5. **E-mail:** info@ttesi.uz
6. **http:** www.ttesi.uz
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Batareva Galina Vitalevna
8. **Telefon raqami:** 53-39-23

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti – Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga kirgan paxta yetishtiruvchi davlatlarning paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoatlari uchun yuqori malakali mutaxassislarni yetkazib beruvchi Markaziy Osiyoda yagona yetakchi oliy o‘quv yurtidir.

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti kutubxonasi 1932 yilda tashkil etilgan. Kutubxonaga dastlabki davrlarda G.A.Kuznetsova rahbarlik qilgan. Dastlab kutubxona fondi 500 nusxadagi adabiyotlarni tashkil etgan.

Kutubxonada Kitob saqlash, Kutubxona fondini to‘ldirish va adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Ma’lumot-bibliografiya, Badiiy adabiyotlar bo‘limlari, shuningdek, 6 ta qiroatxona ham mavjud.

Kutubxona asosan Paxta texnologiyasi va mexanika, Mexanikaviy texnologiya, Yengil sanoat texnologiyasi, Muhandis-iqtisodchi va kimyo texnologiyasi, Malaka oshirish fakultetlari talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxona fondini asosan to‘qimachilik va yengil sanoat, poligrafiya, dizayn, muhandis pedagogika, qog‘oz va karton ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha adabiyotlar tashkil etadi.

1998 yildan boshlab adabiyotlarning elektron katalogini tuzish ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yillarda kutubxonaga ingliz, nemis, fransuz tillaridagi mutaxassislikka oid jurnallar ham olina boshlangan. MDH davlatlarining oliy o'quv yurtlaridan mutaxassislik fanlari bo'yicha ham adabiyotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda kutubxona fondida institutda o'qitiladigan barcha fanlarning ma'ruza matnlari hamda elektron darsliklari mavjud.

O'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalar va darsliklar kutubxona fondining 70 foizini tashkil etadi.

Kutubxonadan foydalanuvchilarga yanada qulayliklar yaratish borasida "Elektron kutubxona" ham tashkil etilgan. Elektron kutubxonadan foydalanish kitobxonlarga sezilarli darajada amaliy yordam beradi, ya'ni kitobxonlar komp'yuter texnologiyalarini amalda qo'llash va undan foydalanish bilan birgalikda ilmiy va o'quv metodik adabiyotlardan hamda kutubxonaning elektron katalogidan foydalanish natijasida kutubxona – bibliografiya bilimlarini ham chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

"Elektron kutubxona"da gazeta va jurnal maqolalarining to'liq matnli "EBSKO" ma'lumotlar bazasi, Prezident asarlari, mutaxassislik fanlari, huquq va iqtisodiyotga doir adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari mavjud.

Kutubxonada "Mening kasbim to'qimachi", "Poligrafiya bugun va ertaga", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yangiliklar kuni", "Yangi o'quv adabiyotlari" mavzularida ko'rgazmalar va boshqa mavzularda tadbirlar tashkil etish an'anaga aylangan.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 633 ming 414 nusxadan ortiq adabiyotlar va 153 nomdagi gazeta va jurnallar saqlanmoqda.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent farmatsevtika instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1937
3. **Manzili:** 700015, Oybek ko‘chasi, 45-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** comp1@bcc.com.uz
6. **http:** www.lib.pharmi.re.uz
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Dmitriyenko Vera Vladimirovna
8. **Telefon raqami:** 56-39-35

Toshkent farmatsevtika instituti 1937 yilda Toshkent davlat tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan.

Toshkent farmatsevtika instituti kutubxonasi esa 1937 yil 16 iyulda institut bilan bir vaqtda tashkil etilgan. Shu vaqtda kutubxona fondi unca katta bo‘lmagan 1000 nusxadan ortiq o‘quv adabiyotlariga ega bo‘lgan. Ushbu adabiyotlarni institut o‘qituvchi va professorlari M.Azizov, Z.Manulkin, A.Krijenkov, D.Sohibovlar sovg‘a qilganlar. Kutubxona tashkil etilgan davrlarda 2 kutubxonachi xodimgina ish olib borgan.

Kutubxonada Kitob saqlash va kataloglar, Kutubxona fondini to‘ldirish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Ma’lumot – bibliografiya bo‘limlari mavjud.

Kutubxona asosan Kasb ta’limi (farmatsiya), Biotexnologiya, Agronomiya, Farmatsiya, Sanoat farmatsiyasi, Dorivor o‘simliklar biotexnologiyasi, Immunnobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi fakultetlari talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxonada 10 dan ortiq kartotekalar mavjud bo‘lib, ayniqsa, “Dorivor o‘simliklar” nomli kartoteka kitobxonlar uchun alohida o‘rin egallaydi. Bu kartoteka institutning sobiq rektori X.Xolmatov tashabbusi bilan tashkil etilgan.

2000 yilning sentyabr oyida kutubxonada komp’yuter sinfi tashkil etilgan. Komp’yuter sinfida Internet tarmog‘idan tashqari

o'zbek, rus va xorijiy tillardagi tibbiyot va farmatsevtika sohasiga oid 180 ga yaqin elektron adabiyotlar, 200 ga yaqin CD disklar va video tasmlar mavjud. Shu yildan boshlab institut kutubxonasi fondida yetishmayatgan darsliklar, ma'ruza matnlari, metodik qo'llanmalar bilan to'ldirish uchun O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot universiteti, Toshkent Davlat pedagogika universiteti, Toshkent Davlat ikkinchi tibbiyot instituti va boshqa institut hamda universitetlar bilan shartnomalar tuzilgan. Shartnoma asosida 2004 yilning yanvar oyidan aprel oyigacha 5000 nusxaga yaqin adabiyotlar sotib olingan. Shuning bilan birgalikda institut professor-o'qituvchilari, yosh olimlarning Xarkov, Moskva, Olmatiy, Bishkek, Sankt-Peterburg, Kopengagen, Jeneva va boshqa davlatlardan olib kelgan adabiyotlarni kutubxonaga sovg'a qilganlar.

2004 yildan boshlab kutubxonada 45 ta kitobxonga mo'ljallangan yangi qiroatxona faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu bilan birgalikda alohida ilmiy fond ham barpo etilib, institut professor-o'qituvchilari uchun yangi qiroatxona ishga tushirilgan.

Institutda Sog'liqni saqlash vazirligi portaliga joylashtirilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Kutubxonada va talabalar uyidagi kutubxonada talabalarning o'qishdan bo'sh paytlariga ham moslashtirilib navbatchilik asosida ish vaqti tashkil etilgan.

Kutubxona fondida 200 dan ortiq nusxada nodir adabiyotlar ham mavjud.

2003 yildan boshlab adabiyotlarning elektron turdagi variantina yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 400 ming nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanmoqda.

1. **Kutubxonaning nomi:** O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1957
3. **Manzili:** 700052, Oqqorg‘on ko‘chasi, 2-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** uzgivk@infoport.uz
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Muxamedshina Alla Sergeevna
8. **Telefon raqami:** 68-06-96

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti 1955 yil tashkil etilgan bo‘lib, o‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida “Jismoniy tarbiya va sport” deb ataluvchi ijtimoiy institutning pedagogik, ilmiy, metodik hamda ma’rifiy markaziga aylangan.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti kutubxonasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya texnikumining kutubxonasi negizida 1957 yilda tashkil qilingan. Dastlab kutubxona fondi 500 nusxadan iborat bo‘lgan. O‘sha davrda kutubxonaga N.A.Sutyagina rahbarlik qilgan. Shu bilan birgalikda kutubxonaning tashkil etilishi va rivojlanishida Ye.S.Vayner, S.T.Bikmurzina, R.I. Anning xizmatlari katta bo‘lgan.

Kutubxona tashkil etilgan davrlarda abonement va qiroatxonadan iborat bo‘lgan.

Bugungi kunda institut kutubxonasidan magistrantlar, aspirantlar, talabalar keng foydalanadilar.

Institut Respublika bo‘yicha yagona “Jismoniy tarbiya va sport” instituti bo‘lgani uchun boshqa institutlardan ham aspirantlar, magistrantlar, sport va jismoniy tarbiyaga oid adabiyotlardan foydalanadilar.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti kutubxonasi Respublikada sport adabiyotlarini saqlaydigan asosiy baza hisoblanadi.

Kutubxona fondida jismoniy tarbiya tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, sportga oid vaqtli matbuot nashrlari, sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlardagi sport turlariga oid adabiyotlar, shuningdek, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, ilmiy-metodik qo'llanmalar saqlanmoqda. Kutubxona fondining 40 foizdan ortigini o'zbek tilidagi adabiyotlar tashkil qiladi.

Kutubxonaga mamlakatimizning va xorijiy davlatlarning sport sohasiga oid jami 64 nomdagi vaqtli matbuot nashrlari olinadi. Jumladan, Rossiyada chop etiladigan "Teoriya i praktika fizicheskoy kulturi", "Fizkultura i sport", "Zdorov'e", "Fizkultura v shkole" nomli gazeta va jurnallardir. Har yili kutubxona fondi nashriyotlar tomonidan chop etilgan yangi adabiyotlar bilan muntazam to'ldirilib boriladi, shuningdek, institutning professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar ham kutubxona fondini yanada boyishiga katta hissa qo'shmoqda.

Kutubxonada Kitob saqlash, Kutubxona fondini to'ldirish, Adabiyotlarga ishlov berish, Kataloglar, Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, Ma'lumot-bibliografiya, Metodik, Moddiy texnik ta'minot va avtomatlashtirish bo'limlari mavjud.

1992 yildan buyon kutubxonadagi mavjud adabiyotlarning elektron katalogi yuritilmoqda. Kutubxonadagi mavjud komp'yuterlar Internet tarmog'iga ulangan va ulardan kitobxonlarning foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Pullik xizmat ko'rsatish tizimi ham yo'lga qo'yilgan.

Kutubxonaning ilmiy fondida avtoreferatlar, dissertatsiyalar saqlanadi.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 168 ming 120 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. Kutubxonaning nomi: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi kutubxonasi

2. Asos solingan yili: 1936

3. Manzili: 700027, Abay ko‘chasi, 1-uy

4. Faks raqami: --

5. E-mail: --

6. http: --

7. Kutubxona rahbarining ismi-sharifi: Maksudova Dilfuza Komilovna

8. Telefon raqami: 41-22-97 (141 kutubxona so‘raladi)

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi 1936 yilda tashkil etilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi birinchi oliy musiqa o‘quv yurtidir. Bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi O‘zbekistonning yirik o‘quv, ilmiy-tadqiqot, musiqiy-ijrochilik va musiqiy-ma’rifiy markazi hisoblanadi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi kutubxonasi konservatoriya o‘qituvchilari tomonidan sovg‘a qilingan adabiyotlar hisobidan 1936 yilda tashkil etilgan.

Kutubxona fondida asosan musiqiy partitura, klavirlar, notalar, musiqa va musiqashunoslikka oid adabiyotlar saqlanadi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy-siyosiy va badiiy adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, avtoreferatlar ham mavjud.

Kutubxonada Kitob saqlash, Kutubxona fondini to‘ldirish, Adabiyotlarga ishlov berish, Ijtimoiy siyosiy va badiiy adabiyotlar, Musiqa bo‘limlari mavjud.

Kutubxona konservatoriya qoshidagi Iqtidorli bolalar akademik litseyi o‘quvchilariga va malaka oshirish fakulteti tinglovchilariga ham xizmat ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 293 ming 344 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent davlat birinchi tibbiyot institutining asosiy kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1920
3. **Manzili:** 700047, Musaxonov ko‘chasi, 103-uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** library_tashmi@mail.ru
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Kuzmina Galina Viktorovna
8. **Telefon raqami:** 67-74-98

Toshkent davlat birinchi tibbiyot instituti o‘z faoliyatini Turkiston xalq universitetida tibbiyot fakulteti tashkil topgan vaqtdan boshlagan. 1931 yilda bu fakultet negizida O‘rta Osiyo tibbiyot instituti tashkil qilingan. 1935 yili u Toshkent davlat tibbiyot instituti deb qayta nomlangan. 1990 yilda esa birinchi va ikkinchi tibbiyot institutlariga bo‘lingan.

Institutning asosiy kutubxonasiga 1919-1920 yillarda asos solingan. Kutubxona fondi asosan shifokorlar, talabalar va aholi orasidan yig‘ib olingan adabiyotlar evaziga tashkil qilingan.

Fors, urdu va boshqa sharq tillaridagi 150 dan ortiq qo‘lyozmalar institut muzeyidan joy olgan.

Kutubxonada Kutubxona fondini to‘ldirish va adabiyotlarga ishlov berish, Ilmiy adabiyotlar, Badiiy adabiyotlar bo‘limlari va 5 ta qiroatxonalar mavjud.

Institutning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi tufayli kutubxonaga AQSH, Janubiy Koreya va boshqa davlatlardan 6000 nusxadan ortiq darsliklar, monografiyalar, slaydlar va boshqa hujjatlar olingan.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 600 ming nusxaga yaqin adabiyotlar saqlanadi.

1. **Kutubxonaning nomi:** Toshkent davlat ikkinchi tibbiyot instituti kutubxonasi
2. **Asos solingan yili:** 1991
3. **Manzili:** 700109, Forobiy ko‘chasi, 2- uy
4. **Faks raqami:** --
5. **E-mail:** www.yandex@mail. ru.
6. **http:** --
7. **Kutubxona rahbarining ismi-sharifi:** Nazarova Mohidilbonu Murodovna
8. **Telefon raqami:** 118-60-04

Toshkent davlat ikkinchi tibbiyot instituti tibbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida 1991 yil Toshkent davlat tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan.

Kutubxonada Kutubxona fondini to‘ldirish va adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, Abonnement, Ilmiy tibbiy adabiyotlar, Axborot-bibliografiya bo‘limlari va badiiy adabiyotlar shu‘basi mavjud.

Kutubxona asosan davolash, tibbiy profilaktika va tibbiy pedagogika fakultetlari talabalariga xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxona 1991 yildan buyon Moskva shahrining «Praktika», «Geotar meditsina», «Nauka» nashriyotlari va yirik kitob savdosi kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan.

Kutubxonaga Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armalaridan ijtimoiy beg‘araz yordam sifatida o‘quv adabiyotlari, audio-video materiallar olingan. Shuningdek, AQSH xalqaro sog‘liqni saqlash uyushmasi tomonidan «Brothers and Sisters» kompaniyasidan (Janubiy Koreya) 7500 nusxada tibbiyotga oid o‘quv adabiyotlar, slaydlar va video materiallar olingan.

Qiroatxonada elektron darsliklar, komp’yuter va internet tarmog‘i mavjud.

Institut bakalavr va magistr lari diplom ishlarini ingliz tilida himoya qilishlari uchun ingliz tilidagi o‘quv adabiyotlari

fondi tashkil etilgan. Bundan tashqari klinik fanlarga oid gazeta va jurnallarning ingliz va rus tillaridagi tarjimalari ham qo'yilgan.

Kutubxonada tibbiyotga oid patent hujjatlar bazasi mavjud. Baza 40 mingdan ziyod hujjatlarni o'z ichiga olgan. Barcha axborot-patent tekshiruvlari avtomatlashgan tizimda amalga oshiriladi. Jumladan, Amerika tibbiyot kutubxonasining «Medline» tizimi, «EBSKO Publishing» elektron jurnallar bazasi, Koxreyn kutubxonasi bazasi, Rossiyaning 850 mingdan ortiq bibliografik tasvirlarni o'z ichiga olgan «Rossiyskaya meditsina» bazasi, hamda dissertatsiyalar, avtoreferatlar, tibbiyotga oid jurnallar va to'plamlarning elektron ko'rinishdagi ma'lumotlari bilan kitobxonlarga axborot-bibliografiya xizmatlari ko'rsatiladi.

Axborot-bibliografiya bo'limi hamda masofaviy o'qitish kafedrasini hamkorlikda 32 nomdagi tibbiyotga oid 2-3-4- toifali elektron darsliklar yaratgan. Undan tashqari, yangi avlod darsliklari, multimediyalar ham yaratilgan.

Kutubxona haqidagi ma'lumotlar institutning VEB saytiga kiritilgan.

Kutubxonaning talabalar uyidagi bo'limlarida ish vaqti 23.00 gacha uzaytirilgan. Bu yerda talabalar mavjud adabiyotlardan tashqari elektron darsliklardan va internet tarmog'idan ham samarali foydalanadilar.

Badiiy adabiyotlar shu'basida nodir adabiyotlar fondi ham tashkil etilgan. Kelgusida bu fondni tibbiyot tarixiga oid hujjatlar bilan to'ldirish ishlari yo'lga qo'yiladi. Hozirda mavjud hujjatlar institutning tibbiyot muzeyida saqlanmoqda.

Kelgusida kutubxona ishini institutning «Tibbiyotnoma» va «Medlife» gazetalarida yoritish va kutubxonaning ma'lumotlar bazasini yaratishdan iborat.

Hozirgi kunda kutubxona fondida 145 ming 793 nusxadan ortiq adabiyotlar saqlanmoqda.

Mundarija

Tuzuvchidan	3
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti kutubxonasi	5
Toshkent davlat aviatsiya instituti kutubxonasi	6
Toshkent avtomobil-yo‘llar instituti kutubxonasi	8
Toshkent arxitektura – qurilish instituti kutubxonasi	9
Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining Asosiy kutubxonasi	11
Toshkent davlat Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi kutubxonasi	13
Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san‘at instituti kutubxonasi	14
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti kutubxonasi ...	15
Toshkent davlat yuridik instituti kutubxonasi	16
Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti. Resurs markazi – kutubxona	18
Toshkent kimyo-texnologiya instituti kutubxonasi	20
Toshkent moliya instituti kutubxonasi	22
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti kutubxonasi	23
Akmal Ikromov nomidagi Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari instituti ilmiy-texnik kutubxonasi .	25
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutini kutubxonasi	27
Toshkent farmatsevtika instituti kutubxonasi	29
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini kutubxonasi	31
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi kutubxonasi	33
Toshkent davlat birinchi tibbiyot institutining asosiy kutubxonasi	34
Toshkent davlat ikkinchi tibbiyot instituti kutubxonasi	35

Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlari
kutubxonalari: Ma'lumotnoma / Alisher Navoiy nom.
O'zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi O.Qilichboyev;
Muharrir H.Mamatraimova.-T.: Alisher Navoiy nom.
O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2005.-38 b.

KBK 78.34 (5O'-2 Toshkent)Ya - 2

Bosishga ruxsat etildi 2005 yil
Bichimi 60x84¹/₁₆ nashr. t. nusxa. Buyurtma №

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining
bosmaxonasi.

700078, Toshkent sh., X.Sulaymonova ko'chasi, 33-uy.